
Hokim o'rinbosari bilan suhbat

Tumanimiz viloyatda eng ko'p paxta yetishtiradigan tumanlardan biri hisoblanadi. Oxirgi yillarda tumanda klasterchilik tizimiga e'tibor qaratilmoqda. Chekka hududlarda ilgari gektariga 10-15 sentnerdan paxta bergan yerlar klaster ixtiyoriga o'tgach, gektaridan 30 sentnerdan hosil yig'ib olinmoqda. Ammo shuning o'zi yetarlimi? Paxta hosildorligi oshgani yaxshi, ammo oziq-ovqat xavfsizligi, meva-sabzavot yetishtirish va boshqa masalalar nima bo'ladi? Rishton tumani hokimi o'rinbosari Nodirjon Mahmudov bilan suhbatimiz shu mavzuda bo'ldi.

— Tumanimizda ayrim yerlardan gektariga 10-15 sentnerdan paxta olinardi. «Ruso'zbekteks» klasteri ixtiyoriga shunday yerlardan 343,8 gektar ajratib berdik. Hozirda hosildorlik gektariga 40 sentnerga yetgan, — deydi mutasaddi tumanda olib borilayotgan ishlar haqida gapirarkan.

— **Shuning o'zi yetarli, deb o'ylaysizmi? Yaxshi bilamiz, paxta yetishtirishda hatto 30 sentner hosildorlik ham yetarli hisoblanmaydi. Yer hamon zarariga ishlayotgan bo'lib chiqmaydimi?**

— Bu o'tgan yilgi raqamlar. Bu yil 90 dan ortiq fermer xo'jaliklari 40 sentnerdan ortiq hosil ko'tarishga erishdi. Qanday qilib hosildorlik bu qadar keskin ko'tarildi? Klaster tomonidan barcha ishga ilmiy yondoshilmoqda - yerning tarkibi o'rganilgan, kerakli o'g'it va mineral qo'shimchalar yetkazib berilmoqda. Natijada hosil ham shunga yarasha bo'lyapti. Bundan tashqari, fermerlarimizning o'zlari ham tinimsiz mehnat qilishmoqda. Agrotexnik tadbirlarini vaqtida va samarali o'tkazishmoqda.

— **Bular yaxshi albatta. Ammo nima uchun o'sha yerda meva-sabzavot yetishtirish mumkin emas? Axir g'alla va paxta yetishtirishda rentabelligi past bo'lgan yerlarni meva-sabzavotga yo'naltirish orqali ko'proq daromad olgan ma'qul emasmi?**

— Fikringizda jon bor. Ammo tumanda yaqin-yaqingacha sug'oriladigan yerlarni ham fermerlar osongina tashlab ketayotgan edi. Salgina muammo bo'lsa, «ol yeringni» derdi. Oxirgi yillarda davlat tomonidan berilayotgan e'tibor tufayli vaziyat ijobiy tomonga o'zgardi. Siz aytgandek, meva-sabzavotga yo'naltirilgan hududlar ham bor. Bundan tashqari, fermerlar bug'doydan bo'shagan yerlarda sabzavot yetishtirishmoqda.

Bugungi kunda tumanimizda 232 ta g'alla va paxtachilik fermer xo'jaligi mavjud bo'lib, ulardan 156 nafar fermer xo'jaliklari joriy mavsumda paxta sotish rejasini ortig'i bilan bajardi. Bundan tashqari, g'allachilikda ham yuqori hosildorlikka erishildi. Tumanda 3 ta g'alla klasterlari bular «Qahramon», «Roshidon Davroni» va «Shukur Hikmat» SX faoliyat yuritmoqda. Tumanimizda g'allachilikning rivojlantirish borasida «Qahramon» va «Roshidon Davroni» g'alla klasterining salmoqli hissasi bor.

2022-12-12 08:41:52